

## SOZGAR USMON ZUFAROVNING MALIKAXON ZIYAYEVA UCHUN MAXSUS YASAGAN DUTOR TARIXI



**Farangiz Mahmudova**

“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsenti v.b  
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-02>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Usmon Zufarov yasagan dutorlarning eng saralari, jumladan ustoz sozanda, Malikaxon Ziyoyevaning yarim asrlik dutori misolida tahlil qilamiz. Bu dutorning o‘ziga xos jihatlari hamda bugungi kunda tutgan o‘rni yoritiladi. XX asr o‘zbek cholg‘usozligining yirik vakillaridan biri Usta Usmon Zufarov bo‘lib, u o‘zining o‘ziga xos yondashuvi, nafisligi va yuqori akustik xususiyatga ega dutorlar yasashi bilan tanilgan.

**Kalit so‘zlar:** sozgarik, Malika Ziyayeva, Faxriddin Sodiqov, dutor, cholg‘u, ijod, sozanda, maqom.

**Аннотация:** В данной статье мы проанализируем лучшие из дутаров, созданных Усманом Зуфаровым, в том числе на примере полувекового дутара мастера-музыканта Маликахон Зиёвой. Освещаются особенности этого дутара и его роль на сегодняшний день. Одним из крупных представителей узбекского инструментального искусства XX века является Уста Усман Зуфаров, известный своим уникальным подходом, изяществом и изготовлением дутаров с высокими акустическими свойствами.

**Ключевые слова:** созгирик, Малика Зияева, Фахриддин Содиков, дутар, инструмент, творчество, музыкант, маком.

**Abstract:** In this article, we will analyze the finest dutars created by Usmon Zufarov, including the half-century-old dutar of master musician Malikakhon Ziyoyeva as an example. We highlight the features of this dutar and its role in the present day. One of the major figures in 20th-century Uzbek instrumental art is Usta Usmon Zufarov, renowned for his unique approach, elegance, and the crafting of dutars with superior acoustic properties.

**Keywords:** sozgirik, Malika Ziyaeva, Fakhreddin Sodikov, dutar, instrument, artistry, musician, maqom.

O‘zbek musiqa madaniyatida dutor cholg‘usi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu cholg‘u nafaqat maqom san’ati, balki xalq kuylari, doston va lirik ashulalar ijrosida ham keng qo‘llaniladi. Dutorning sifatli ovoz berishi esa uni yasagan usta mahoratiga bevosita bog‘liq. XX asr o‘zbek cholg‘usozligining yirik vakillaridan biri Usta Usmon Zufarov bo‘lib, u o‘zining o‘ziga xos yondashuvi, nafisligi va yuqori akustik xususiyatga ega dutorlar yasashi bilan tanilgan. O‘zbek sozgarlik san’ati asrlar davomida xalqning ma’naviy va musiqiy tafakkuri bilan uyg‘un ravishda rivojlanib kelgan. Bu jarayonning yirik namoyandalaridan biri Usta Usmon Zufarov bo‘lib, u yasagan dutorlar o‘zining noyob shakli, nafis ishlovi va musiqiy imkoniyatlari bilan hozirgi kunda ham yuqori baholanadi. Uning ustozlik maktabi, soz yasashdagi texnologiyalari, ayniqsa dutor yaratishdagi nozik jihatlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, T.Alimatov, Y.Rajabiy, F.Sodiqov kabi zabardast ustozlarning asarlarida dutorning maqom ijrochiligidagi o‘rni va estetik mezonlari tahlil qilingan.

Usta Usmon Zufarovning o‘g‘li To‘xtamurod Zufarovning “Soz va sozgarlik san’ati” kitobida bevosita soz yasashning nozik detallari-yu , ustuning umri davomidagi qilgan ijodiy mehnatlari keng qamrovda yoritilgan.

Ushbu tadqiqotda tavsifiy, tahliliy va tarixiy metodlar asos qilib olindi. Zufarov yasagan dutorlar shakli, materiali, tovushi va dekorativ bezaklari tahlil qilindi. Muzeydagi namunalar, shogirdlarining esdaliklari va dutorchilik matabining hozirgi holati ham o'rganildi. U. Zufarovning dutor yasashda tutgan yo'li asosan Xorazm va Farg'ona-Toshkent cholg'usozlik matablari asosida, ammo o'ziga xoslikka ega holda shakllangan. Dutorlarning o'ziga xos shakli, ishlatilgan materiallar, tovush imkoniyatlari va ularni baholash mezonlari o'rganildi. Usta bilan bevosita ishlagan shogirdlarning xotiralari, uning cholg'ularidan foydalangan mashhur dutorchilarining tajribalari va amaliy tahlillar asos qilib olindi.

Usta Usmon Zufarov yasagan dutorlar bir necha asosiy jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Material tanlovi: Zufarov asosan tabiiy, mustahkam va tovush chiqarish salohiyati yuqori bo'lgan tut va yong'oq yog'ochlaridan foydalangan. Yog'ochni uzoq vaqt quritib, sinchiklab ishlov bergan.

2. Shabl va o'lchamlar: Uning dutorlari proporsional, muvozanatli bo'lib, bu ularning akustikasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan. Cholg'ular ko'pincha tor, ammo chuqur tovush beruvchi rezonansli bo'lib chiqqan.

3. Nafislik va san'atkorlik: Zufarov cholg'ulariga bejirim bezaklar, naqshlar solib, ularni nafaqat musiqa asbobi, balki san'at asari sifatida ham qabul qilingan holga keltirgan.

4. Ijrochilarga moslashtirish: U yasagan dutorlar ko'pincha buyurtma asosida, ijrochining uslub va texnikasiga moslashtirib yasalgan. Bu jihat usta ijodini alohida qadrlashga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda Usmon Zufarov yasagan ayrim dutorlar O'zbekiston Davlat konservatoriysi, San'at va madaniyat muzeylarida, ayrim usto san'atkorlarning shaxsiy to'plamida saqlanmoqda. Usta Usmon Zufarov yasagan dutorlar nafaqat musiqa asbobi, balki o'zbek milliy madaniyatining ramzidir. Ularning texnik mukammalligi, tovush sifati va bezaklaridagi mahorat bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bu dutorlar ustanning o'ziga xos ijodiy uslubini, estetik qarashlarini va musiqaga bo'lgan mehrini mujassamlashtirgan. Ana shu o'ziga xos dutorlardan biri va yagonasi haqidada eslaymiz.

Usto sozanda, o'z ijrochilik matabini yarata olgan zabardast mehnatkash fidoiy ayol, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Malikaxon Ziyayeva, dutor cholg'usining yaralish tarixi va ustozi Faxriddin Sodiqovning usta Usmon Zufarov bilan bog'liq bo'lgan talabalik davridagi xotiralarni shunday yodga oladi: " Rahmatli ustozim Faxriddin Sodiqov, menga mos bo'lgan dutor yasab berish uchun ustanning xovlisiga boradilar va shu qizimizga ovozi nafis, qizlar qo'liga mos tushadigan nozik va go'zal dutor yasab berish kerakligini iltimos qiladilar va tayyor bo'ladigan vaqt kelishlarini ta'kidlab uyga qaytadilar. Oradan biroz vaqt o'tib, ustanning oldiga dutor uchun borib qarasalar, chirolyi jarangdor dutor yasalgan edi. Ammo u dutor mening qo'lim uchun mo'ljallanmagan, aksincha biroz kosaxonasi kattaroq va dastasi chidamsizdek ko'ringanga o'xshaydi. Bu masalani ehtiyyotkorona tushuntirish maqsadida dutorni juda ham maqtab ustanning mehnatiga tan bergaan holda, bu qizimizga kichikroq va yanada nafisroq, ovozi mayin cholg'u kerakligini aytadilar. Shu orada vaqt o'tib yana Usmon Zufarov xonodonlariga yana tashrif buyuradilar. Bu safar qo'y go'shti-yu eng sara bozorning oldi mahsulotlar xaridi bilan kirib keladilar. Ne ko'z bilan ko'rayki, bu dutor ham erkaklar uchun yasalgandek, ayni biz ko'nglimizdek xoxlaganimiz emas bo'lib chiqdi. Ammo, ustaga bunday desa juda ham jaxli chiqib, dutorni bir urib sindiradigan achchiq fe'li borligi ma'lum edi. So'ng kelasi kelganimizda Malikaxonni qo'liga tushadigan, unga bir umr xizmat qiladigan darajadagi, nihoyatda betakror va eng go'zal dutor yasab berishlari kerakligini aytib xayrashamiz. Uzoq vaqt o'tib, xonodonlariga kirib borsak, darvozadan chunonan mehnat qilib, yog'ochga o'zgacha zeb berib mehnat qilayotgan usta ko'z oldimizda turibdi. Shu payt ustozim menga kuib qaradilar-da, ana endi xaqiqiy dutoringiz tayyor bo'lyapti. Chunki Usta Usmon doda o'z qo'llari bilan tayyorlayaptilar. Avvalgi dutorlar esa, shogirdlarning ishi edi " deya 1971-yilda tayyorlangan dutorning yasalish jarayonlarini eslaydi ustozi Malikaxon Ziyoyeva.

Darxaqiqat, ko'plab ijod jarayonlarini, sahnalarni ko'rgan qadrli dutor ustozning qo'llarida yarim asrdan ziyod xizmat qilib kelmoqda. Bu dutor qancha xotiralarni, qancha yoshlik davrlardagi ko'plab san'atkor yirik namoyondalarni, qancha mashaqqatli va baxtli kunlarni guvoxi

bo‘ldi. Maqom ansamblidagi sermahsul va mazmunli ijod davrlarida necha yuzlab plastinka albomlarga ovozi yangramadi deysiz? Bu qadrli dutor biz kabi shogirdlarni 30 dan ziyodasini tanlovlarda g’olib qilmadimi? Ulug‘ sahnalarda Malikaxon Ziyoyeva bilan yer yuzini kezib chiqib o‘zbekning maqomini, uning dardini mungli ovozida jaxonga ko‘rsatmadimi?

Bu dutor ustoz sozandaning umri davomida topgan noni va nomi, sirdoshi, dard-u g’amlariga oshno qalbi bo‘ldi. Bu noyob antikvar dutorni yasalishiga sozgar ustaga ihmongergan va 3 marta qayta-qayta yasattirgan inson Faxriddin Sodiqov bo‘lsa, o‘zinig nafaqat qo‘l mehnati va maxorati balki, yurak ardog’ini berb yasagan sozgar usta Usmon Zufarov bo‘ldi. Bu dutorni o‘zining ijrosi ila sayratib dillarni yayratgan, o‘zbekning dutorini jaxon saxnalariga olib chiqib san’atini baland eshittirgan vertioz sozanda esa ustoz Malikaxon Ziyayeva bo‘ldi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Zufarov T. – Soz va sozgarlik tarixi. Toshkent, 2024.
2. Azimjonova G. – Milliy cholg‘ular taraqqiyoti. Zenodo, 2024.
3. Rajabov I. Maqomlar. T., 2006 y.
4. Matyakubov O. Buxoro shashmaqomiga yana bir nazar. T., 2014 y.
5. Matyakubov O. Uzbekskaya klassicheskaya muzika. I-II tom.T., 2015 y.
6. Matyakubov O. Maqomot. T., 2004 y.